QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

# INNOVATSION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

2026
№3

# ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

# INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

**Научно-практический электронный журнал**

## INNOVATIVE ECONOMY

**Electronic scientific and practical journal**

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Muassis:**

**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul muharrir:**

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

**Texnik muharrir:**

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*



*Tahririyat manzili:*

*180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23*
*+998 (93) 902 72 63*
*Faks: +998 (75) 221 1395*
*innoeconomic@kstu.uz*


"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi


**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

**Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:**

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)*
*Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)*
*Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)*
*Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)*
*Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)*
*Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)*
*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)*
*Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*
*Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)*
*Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)*
*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)*
*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)*
*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*
*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)*
*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)*
*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)*
*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)*

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**

*Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik*
*Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor*
*Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor*
*Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor*
*Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor*
*Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor*
*Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent*
*Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor*
*Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent*
*Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent*
*Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent*
*Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent*
*Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent*
*Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent*
*Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)*
*Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)*
*Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)*
*Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent*

# ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

## Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X
ojs.kstu.uz

**Учредитель:**
**Каршинский государственный технический университет**



**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов



Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.



*Адрес редакции:*
*180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225*

*Тел: +998 (75) 221 09 23*
*+998 (93) 902 72 63*
*Факс: +998 (75) 221 1395*
*E-mail: innoeconomic@kstu.uz*



Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.


**В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм


**Редакционная коллегия:**
**Международные члены Совета редколлегии:**

*Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)*
*Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)*
*Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)*
*Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)*
*Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)*
*Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)*
*Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)*
*Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)*
*Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)*
*Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)*
*Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)*
*Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)*
*Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)*
*Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)*
*Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)*
*Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)*
*Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)*
*Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)*
*Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)*
*Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)*

**Члены Совета редколлегии:**

*Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик*
*Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор*
*Навруз-зода Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор*
*Хатамов Очилди Курбанович – д.э.н., профессор*
*Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор*
*Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор*
*Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент*
*Еркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор*
*Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н., (DSc), доцент*
*Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.наук., (PhD), доцент*
*Алигулов Азамат Туйгунович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Аминов Фазлитдин Бахадирович – к.э.н., доцент*
*Хужакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Алимова Муниса Юльчиевна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н., (DSc), доцент*
*Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э., (PhD), доцент*
*Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Джанузаков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н., (PhD), доцент*
*Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н., (PhD)*
*Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф..э.н., (PhD)*
*Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н., (PhD)*
*Панджиев Самиджон Аликулич — PhD, доцент*

# Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

# Small business and private entrepreneurship

# Малый бизнес и частное предпринимательство

UDK: 334.72:338.242

*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.3.3.2026.14

# KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINI KUCHAYTIRISH ISTIQBOLLARI

*Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich*

# ПЕРСПЕКТИВЫ УКРЕПЛЕНИЯ ПАРТНЕРСТВА МЕЖДУ ГОСУДАРСТВЕННЫМ И ЧАСТНЫМ СЕКТОРАМИ В ПОДДЕРЖКЕ МАЛОГО БИЗНЕСА

*Иброхимов Мухаммаджон Абдулладжанович*

# PROSPECTS FOR STRENGTHENING PARTNERSHIPS BETWEEN THE PUBLIC AND PRIVATE SECTORS IN SUPPORTING SMALL BUSINESSES

*Ibrokhimov Muhammadzhon Abdullajanovich*

Received: March 6, 2026 Revised: March 10, 2026 Accepted: March 12, 2026 Published: Aprel 1, 2026

**Annotatsiya:** Maqolada kichik biznesni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, uning iqtisodiy samaradorligi hamda istiqbollari tahlil qilinadi. O‘rganish davomida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashdagi roli o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, hamkorlikni kuchaytirish investitsiyalar hajmini oshiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik, hamkorlik.

**Аннотatsiя:** В статье анализируется значение сотрудничества между государством и частным сектором в развитии малого бизнеса, его экономической эффективности и перспектив. В исследовании рассматривается роль механизмов государственно-частного партнерства в поддержке малого бизнеса. Результаты показывают, что укрепление сотрудничества увеличивает объем инвестиций, создает новые рабочие места и обеспечивает экономическую стабильность.

**Ключевые слова:** малый бизнес, государственно-частное партнерство, инвестиции, экономическое развитие, предпринимательство, сотрудничество.

**Abstract:** This article analyzes the importance of public-private partnerships in small business development, economic efficiency, and prospects. The study examines the role of public-private partnership mechanisms in supporting small businesses. The results show that strengthening partnerships increases investment, creates new jobs, and ensures economic stability.

**Keywords:** small business, public-private partnerships, investment, economic development, entrepreneurship, cooperation.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes bandlikni ta’minlash, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirishda muhim rol o‘ynamoqda.

So‘nggi yillarda davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur.

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish hamda istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash dolzarb bo‘lmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda kichik biznesni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan:

1. Jeffrey Delmon (2015) Public-Private Partnership Projects in Infrastructure. Ushbu asarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish mexanizmlari, risklarni taqsimlash va samarali boshqaruv tizimi tahlil qilingan. Bu yondashuv kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda DXShning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi [3].

2. Mariana Mazzucato (2018) The Entrepreneurial State. Muallif davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtirokini asoslab, uni innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim subyekt sifatida talqin qiladi. Ushbu konsepsiya kichik biznesni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi [4].

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2021). Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish strategiyasi. Mazkur hujjatda milliy iqtisodiyotda DXSh mexanizmlarini keng joriy etish, jumladan kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari belgilab berilgan [5].

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023). Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi. Ushbu manbada kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari yoritilgan [6].

5. Xolmurodov A., Karimova D. (2023). Kichik biznesni rivojlantirishda davlat siyosatining roli. Mualliflar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda davlat dasturlari va xususiy sektor ishtirokining ahamiyatini tahlil qilgan [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: tizimli tahlil usuli kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kompleks o‘rganish; taqqoslash usuli xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan solishtirish; statistik tahlil kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini baholash; induktiv va deduktiv yondashuvlar umumiy xulosalar chiqarish uchun; ekspert baholash usuli mavjud muammolar va istiqbollarni aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modellari, jumladan, infratuzilma loyihalari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari va innovatsion klasterlar faoliyati o‘rganildi.

Tadqiqot olib borish jarayonida analiz-sintez, induksiya va diduksiya, iqtisodiy tahlil, matematik modellashtirish kabi usullardan foydalanildi. Shu bilan birga, ilmiy manbalar asosida innovatsion rivojlanishda raqamli iqtisodiyotning ustuvorliklari hamda amaliy qo‘llanilish yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilayotgan islohotlar mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilga bo‘lib bunga bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Tahlil qiladigan bo‘lsak, asosan iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznesni axamiyati kattaligi sabab tadbirkorlarga keng ikoniyat yaratilmoqda. Shu bilan birgalikda davlat xam sherikchilik asosida faoliyat olib bormoqda. Ushbu jarayon natijalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatdi: ya`ni, Davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy samaradorligi. Unda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik kichik biznes subyektlariga moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtiradi. Bu esa investitsiya faolligining oshishiga olib keladi. Infratuzilma rivojida esa DXSh asosida tashkil etilgan loyihalar kichik biznes uchun zarur bo‘lgan transport, logistika va raqamli infratuzilmani yaxshilaydi. Bundan tashqari moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan davlat tomonidan subsidiya, grant va imtiyozli kreditlar ajratilishi xususiy sektor bilan hamkorlikda yanada samarali ishlaydi. Hamkorlik natijasida texnologik yangiliklar kichik biznesga tezroq joriy etiladi va startap ekotizimi rivojlanmoqda. Bularning barchasi bandlik darajasining oshishida DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Quyidagi tahlil qilgan jadvalimiz bunga misol bo‘la oladi.

**1-jadval**

**Davlat va xususiy sektor hamkorligining iqtisodiy samaradorligi (Namangan viloyati) [10].**

| Ko‘rsatkichlar | 2020 | 2024 | O‘zgarish (%) |
|---|---|---|---|
| Investitsiyalar (mlrd so‘m) | 12 000 | 24 000 | +100% |
| Yangi ish o‘rinlari (ming) | 180 | 320 | +78% |
| Eksport hajmi (mln dollar) | 500 | 950 | +90% |
| Innovatsion loyihalar soni | 90 | 180 | +100% |

Ushbu 1-jadval davlat va xususiy sektor hamkorligi natijasida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi.

Xususan, investitsiyalar hajmi 2 barobarga oshgani hududda investitsion muhit yaxshilanganini bildiradi. Yangi ish o‘rinlari sonining 78 foizga ortishi esa ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan[10].

Eksport hajmining keskin oshishi kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, innovatsion loyihalar sonining ikki barobarga oshgani hududda innovatsion iqtisodiyot shakllanayotganini ko‘rsatadi.

**2-jadval**

**Davlat-xususiy sheriklikning kichik biznes rivojiga ta'siri[8].**

| Ko'rsatkichlar | Hamkorlikdan oldin | Hamkorlikdan keyin | O'zgarish (%) |
|---|---|---|---|
| Kichik biznes subyektlari soni | 100 ming | 135 ming | +35% |
| Investitsiyalar hajmi (mlrd so'm) | 15 000 | 24 000 | +60% |
| Yangi ish o'rinlari (ming) | 250 | 340 | +36% |
| Eksport hajmi (mln dollar) | 800 | 1 200 | +50% |
| Innovatsion loyihalar soni | 120 | 210 | +75% |

*Manba: Muallif ishlanmasi.*

Mazkur 2-jadval ma'lumotlari davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik (DXSh) kichik biznes rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bunda:

Birinchidan, kichik biznes subyektlari soni 100 mingdan 135 mingtaga oshib, 35 foiz o'sish kuzatilgan. Bu davlat tomonidan yaratilgan qulay biznes muhiti va xususiy sektor ishtirokining faollashuvi bilan izohlanadi[8].

Ikkinchidan, investitsiyalar hajmi 60 foizga oshgani hamkorlikning eng muhim natijalaridan biridir. Xususan, xususiy investorlarning infratuzilma va ishlab chiqarish loyihalariga jalb etilishi kapital oqimini sezilarli darajada ko'paytirgan.

Uchinchidan, yangi ish o'rinlari sonining 36 foizga ortishi kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytirganini ko'rsatadi. Bu esa aholining bandlik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

To'rtinchidan, eksport hajmining 50 foizga oshishi kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi. Bu jarayonda davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari muhim rol o'ynagan.

Beshinchidan, innovatsion loyihalar sonining 75 foizga oshgani davlat va xususiy sektor hamkorligining innovatsion rivojlanishga kuchli turtki berayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, texnoparklar va startap loyihalar orqali yangi texnologiyalar joriy etilmoqda.

Umuman olganda, jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik kichik biznesni rivojlantirishda kompleks va samarali mexanizm hisoblanadi.

Ushbu 2-jadval tahlili asosida quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin: davlat va xususiy sektor hamkorligi iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, investitsiya muhitini yaxshilash orqali kichik biznesning barqarorligi oshadi, innovatsiyalarni joriy etish jarayoni tezlashadi, hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi ortadi.

Shu bilan birga, kelgusida ushbu ko'rsatkichlarni yanada oshirish uchun institutsional islohotlarni davom ettirish zarur.

**3-jadval**

**Namangan viloyatida kichik biznes ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2024 yy.) [10].**

| Ko'rsatkichlar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | O'sish (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Kichik biznes subyektlari (ming) | 52 | 58 | 65 | 72 | 80 | +54% |
| Band aholining ulushi (%) | 68 | 70 | 72 | 74 | 76 | +8% |
| YAIMdagi ulushi (%) | 55 | 57 | 59 | 61 | 63 | +8% |

Ushbu 3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari soni 5 yil davomida 52 mingtadan 80 mingtaga oshib, 54 foiz o'sish kuzatilgan. Bu davlat tomonidan yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti va xususiy sektor bilan hamkorlikning kengayishi natijasidir[10].

Bandlik darajasining oshishi kichik biznesning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirgan bo'lsa, YAIMdagi ulushining ortishi uning iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlayotganini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi ma`lumotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda davlat

va xususiy sektor hamkorligi muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Biroq, ushbu hamkorlikni rivojlantirishda ayrim muammolar mavjud bo‘lib ularni bartaraf etish lozim va bartaraf etilmoqda. Shu sabab samarali natijaga erishib kelinmoqda. Shu bois kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim o‘rin egallamoqdadir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Ushbu hamkorlikni kengaytirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash, bandlikni oshirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlash mumkin.

Kelgusida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish kichik biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

## Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich University of Business and Science Moliya kafedrasi katta o‘qituvchisi/ Иброхимов Мухаммаджон Абдулладжанович, старший преподаватель кафедры финансов University of Business and Science/ Ibrokhimov Muhammadzhon Abdullajanovich, senior lecturer of the Department of Finance of the University of Business and Science

**E-mail:** ibrohimovmuhammadjon7474@gmail.com
**ORCID:** 0009-0008-4449-3691

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1].O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. T.:”O‘zbekiston”, 2022 y.

[2]. Muhammadjanovich K. I. Effective directions of development of entrepreneurship //Conference Zone. - 2022. - S. 129-133.

[3]. Jeffrey Delmon (2015) Public-Private Partnership Projects in Infrastructure.

[4]. Mariana Mazzucato (2018) The Entrepreneurial State.

[5]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2021).

[6]. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023).

[7]. Xolmurodov A., Karimova D. (2023). Kichik biznesni rivojlantirishda davlat siyosatining roli.

[8]. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss.avtoref. – T.: 2005-39 b.

[9]. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. Toshkent, 2020 y.190b.

[10]. **www.stat.uz** sayt ma’lumotlari.

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

t.me/kstu_uz

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko‘chasi 225

www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz